
Tadbirkorning muammo va kamchiliklari ustida ishlash va ularga amaliy yechim topish kunning asosiy va dolzarb masalasi



Tadbirkorning muammo va kamchiliklari ustida ishlash va ularga amaliy yechim topish kunning asosiy va dolzarb masalasi

Avval xabar berganimizdek, Sux tumanining sektorlar kesimida tasdiqlangan jadvalga asosan tuman hokimi boshchiligida tadbirkorlarning sayyor qabuli o'tkazilmoqda. Rejaga asosan, bugun tuman hokimi mutasaddiy idoralar vakillari bilan tumanning 3-sektorida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar bilan uchrashdi. 3-sektor tarkibiga Qizilqiyoc, Hushyor, Sebzor, Qaqir, Sharqobod mahalla fuqarolar yig'inlari kiradi.

Aytish mumkinki, ushbu hududda ham hukumat va bevosita Prezidentimiz tomonidan berilayotgan e'tibor doirasida tadbirkorlik rivojlanmoqda. Lekin, soha rivojiga to'sqinlik qilayotgan bir necha omillar borki, bu omillar 2020 yil 19 may kuni tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar masalasida o'tkazilgan hukumat videoselektor yig'ilishida ham Prezidentimiz tomonidan alohida ta'kidlanib, bu yo'nalishda ba'zi rahbarlarning olib borayotgan ishlari qoniqarsiz va talab darajasida emasligi qayd etilgan edi. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek - "Pandemiya davrida karantin talablariga rioya qilib yashash va ishlashni o'rganish, "Inqirozga qarshi shuningdek, iqtisodiyotni tiklash bo'yicha kurashish", hududlarda tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash har bir rahbarning asosiy vazifasi bo'lishi lozim".

Sux tumani hokimi F. Usarov, tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'i, uchinchi sektor rahbari S. Saidmo'saev, O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining Tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish qabulxonasi Sux tumanidagi bo'limi mudiri M. Jumaevlar ishtirok etgan sayyor qabulda hududdagi 15 nafar xususiy tadbirkorlar qatnashib, muammo va kamchiliklari borasida tuman hokimi va mutasaddiy rahbarlarga murojaat etishdi. Ta'kidlash lozimki, sayyor qabul karantin tartib-qoidalariga qattiq rioya qilgan holda o'tkazildi.



Qabul davomida kelib tushgan murojaatlarni o'rganib chiqish va natijasi bo'yicha muallifga ma'lum qilish uchun tuman hokimining o'rinbosarlari, tuman hokimligining masalaga daxldor apparat xodimlari, korxonalar, tashkilot va bo'limlariga tegishli topshiriqlar berildi. Jumladan, mutasaddiy idoralar vakillariga bir kun muddatda jismoniy va yuridik shaxsalar bilan o'tkaziladigan qabul davomida tushgan murojaatlar ijrosini ta'minlash yuzasidan nazorat-reja ishlab chiqish va tasdiqqa kiritish, murojaatlarda ko'tarilgan muammolarning amaliy yechimlarini topishga qaratilgan kompleks choralar-tadbirlar ishlab chiqib, bajarilishini nazoratga olish, qabul davomida kelib tushgan murojaatlarni belgilangan tartibda o'rganib chiqish va qonuniy hal etish choralarini ko'rishdek vazifalar topshirildi. Darhaqiqat, tadbirkorlar tomonidan bildirilgan har bir fikr-mulohaza, taklif va muammo-kamchiliklar, shuningdek, murojaatlar o'z vaqtida, ijobiy hal etilishi lozim. Bu davr va zamon talabi. Tadbirkorning talab-istagi vaqtida ijobiy hal etilsagina, natijaga erishish mumkin.



Aytganimizdek, ushbu sektorda ham tadbirkorlikni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan va tadbirkorning yo'liga g'ov bo'layotgan muammolar borki, ularning yechimi rahbarning salohiyati va mas'uliyatiga bog'liq. Belgilangan rejaga asosan, tadbirkorlarning navbatdagi sayyor qabuli 25 may kuni tumanning 4-sektorida o'tkaziladi. Tadbirkorning muammo va kamchiliklari ustida ishlash va ularga amaliy yechim topish kunning asosiy va dolzarb masalasi ekanligini aslo unutmasligimiz lozim.

Sux tumani hokimligi Axborot xizmati

2020-05-23 18:25:28